O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

# YOSHLAR OVOZI

Молодежь Узбекистана

№ 31 (16437)
2021-YIL
1-SENTABR,
CHORSHANBA

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ | YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU | @YOSHLAROVOZIUZ | @YOSHLAROVOZI

IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, ADABIY-BADIIY GAZETA

# YANGI O'ZBEKISTON RAMZI









***Kecha Toshkent viloyatining Qibray tumanida barpo etilgan "Yangi O'zbekiston" bog'i va Mustaqillik monumentining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Tadbirda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, nutq so'zladi.***

"Yangi O'zbekiston" bog'i va Mustaqillik monumentiga boqqan inson ko'z oldiga xalqimizning shonli tarixi, uzoq va yaqin o'tmishi keladi. Bog' mamlakatimizning kechagi kuni, buguni va ertangi porloq istiqbolining ifodasidir. Uning markaziy qismida muhtasham badiiy obida – Mustaqillik monumenti barpo etildi.

— Biz bugun Vatanimiz mustaqilligining 30 yillik bayramini keng nishonlayapmiz. Lekin aslida, O'zbekiston hududidagi milliy davlatchilik tarixi 3 ming yildan ziyod davrni tashkil etadi. Bu jahon fanida e'tirof etilgan ilmiy haqiqatdir. Ushbu monumentni yaratishda mana shu konseptual g'oyani yorqin ifoda etishga harakat qildik, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Tinchlik va erkinlik, ezgulik va farovonlik timsoli bo'lgan, ko'kda mag'rur parvoz qilayotgan Humo qushi tasviri monumentning eng yuqori qismida – bamisoli uning gultoji bo'lib o'rin egallagan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev jamoatchilik vakillari bilan birga Mustaqillik monumentini ochdi. Majmua poyiga gullar qo'yildi.

**2021-YIL – YOSHLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH VA AHOLI SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH YILI**

**YOSHLAR PARLAMENTI**

# YURT ISTIQBOLINI BELGILOVCHI KUCH

***Yoshlarga e'tibor berish, kelajak avlod bilimiga va yuksalishiga investitsiya qilish davlatning rivojlanishi uchun eng samarali yo'ldir. Buyuk fransuz siyosiy arbobi Aleksis Tokvil aytganidek, "Demokratik davlatlarda har bir yangi avlod – yangi xalqdir".***

Mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan. O'z navbatida, mazkur tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashib bormoqda. Bugungacha parlamentda yoshlarga oid 40 dan ortiq qonun qabul qilingan bo'lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjat ratifikatsiya qilingan. Ushbu hujjatlarning sifatli ijrosi ustidan muntazam ta'sirchan parlament nazorati o'rnatilgan.

Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun ekanida ham ulkan ramziy ma'no mujassam.

Aholisining yarmidan ko'pi yoshlardan iborat bo'lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, maqsadga intiluvchan, komil shaxslar sifatida tarbiyalash mamlakat rivoji uchun muhim omildir.

Mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni rag'batlantirish maqsadida katta ishlar amalga oshirildi.

Davomi 3-sahifada.

# СОЗДАТЕЛИ ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА

**РОВЕСНИК НЕЗАВИСИМОСТИ**



***Год поддержки молодежи и укрепления здоровья населения. Суверенитету Республики Узбекистан 30 лет. Три десятилетия поисков и решений, знаковых свершений и новых целей...***

***Какое бы название ни давали году, он всегда отражает интересы подрастающего поколения, которое находится под пристальным вниманием государства. Молодежная политика – мощная правовая и морально-нравственная база, определяющая гармоничное развитие наших юношей и девушек.***

***Рожденных в 1991-м гордо называют ровесниками независимости. Ведь они взрослели, набирались знаний и навыков, совершали открытия и побеждали, воплощали мечты и продвигали оригинальные идеи в исторический отрезок времени – от зарождения самостоятельности до поры ее расцвета.***

***Сегодня о тех, кому суждено создавать Новый Узбекистан, мы беседуем с Дилнозой КАТТАХАНОВОЙ, заместителем директора Агентства по делам молодежи, кавалером ордена «Дустлик», лауреатом Государственной премии имени Зульфии.***

Продолжение на 6–7-й стр.

*Oʻzbekiston — yoshlar mamlakati. Davlatimiz yosh avlod kelajagi uchun barcha sharoitlarni yaratib bermoqda. Buni Jizzax viloyati Zomin tumanining chekka qishlogʻi — Peshagʻorda 10 mingdan ziyod yoshlar va aholining boshqa qatlamlari ishtirokida boʻlib oʻtgan yoshlar festivali yana bir bor isbotladi.*

*Festivalda turli millat vakillari hamda harbiylar va Temurbeklar maktabi oʻquvchilari, harbiy orkestr chiqishlari, makkajoʻhorili taomlar va dehqonchilik mahsulotlari koʻrgazmasi, 5 tashabbus paveloni, milliy kiyimlar va musiqiy chiqishlar, "General-hokim va yoshlar" uchrashuvi tashkil etildi.*

*Festival doirasida Yoshlik, Peshagʻor, Qoʻshtol, Navoiy mahallalarida istiqomat qilayotgan 100 nafar yoshga 10 yilga foydalanish uchun 50 sotixdan yer maydonlari oʻlchab berildi.*

*Tantanali tadbir yakunida festival ishtirokchilarining butun Oʻzbekiston yoshlariga murojaati qabul qilindi.*



# Zomin tumanida oʻtkazilgan yoshlar festivali ishtirokchilarining mamlakatimiz yoshlariga MUROJAATI

Hurmatli yoshlar, aziz tengdoshlar!

Eng ulugʻ, eng aziz bayramimiz – Oʻzbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining oʻttiz yilligi arafasida Zomin tumanining Peshagʻor qishlogʻida birinchi marta tashkil etilgan yoshlar festivali hayotimizda sezilarli iz qoldirdi.

"Yoshlarni qoʻllab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb e'lon qilingan 2021-yilda peshagʻorlik yoshlarning hayotida ham bir qator unutilmas voqealar yuz berdi. Jumladan, mazkur hududdagi 5 ta mahallada istiqomat qilayotgan yigit-qizlardan 184 nafari "Yoshlar daftari" elektron platformasiga kiritilib, ularga har tomonlama yordam koʻrsatildi. Xususan, 59 nafariga oʻzini oʻzi band qilishi uchun 200 million soʻmlik subsidiya berildi.

Shuningdek, 276 nafar tengdoshimiz doimiy ishga joylashtirilgan boʻlsa, yana 42 nafariga 840 million soʻm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratildi. Qisqa muddatda "Yoshlik" mahalla fuqarolar yigʻini hududida 360 oʻrinli "Yoshlik baraka chevarlari" tikuv fabrikasi foydalanishga topshirildi. Ushbu fabrikada mehnat qilayotgan 270 nafar tikuvchining 123 nafari yosh xotin-qizlardir.

Qishloq yoshlarining jismonan sogʻlom, ma'nan yetuk insonlar boʻlib kamol topishi, xususan, sport bilan shugʻullanishi uchun yetarli sharoit yaratish maqsadida 5 ta sport maydonchasi qurildi.



Eng asosiysi, festival arafasida 50 gektar yer maydoni tomchilatib sugʻorish usulida oʻzlashtirilib, zominlik 100 nafar yoshga 10 yil muddatga taqsimlab berildi. Shu tariqa yoshlar unumdor zaminda dehqonchilik bilan shugʻullanish orqali doimiy ish oʻrniga ega boʻldi. Shu yilning oʻzida yosh mirishkorlar oʻzlariga tegishli yerda makkajoʻxori yetishtirib, oʻrtacha 7-8 tonnadan hosil olishi va bu orqali har biri 25 million soʻmdan daromad qilishi rejalashtirilgan.

Peshagʻordagi yoshlar festivali bu hududda yashayotgan navqiron avlod vakillari hayotida yuz ochayotgan butunlay yangi bir davrning muqaddimasiga aylandi. Ulkan hovuz va rango-rang favvora barpo etilib, atrofiga turfa gullar ekilgan ertakmonand maydonda oʻtkazilgan yigʻinda minglab jizzaxlik yigit-qizlar, ayniqsa, Peshagʻor va Rovot qishloqlarida istiqomat qilayotgan yoshlar faol ishtirok etdi.

Bu yerda besh muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan madaniy-ma'rifiy, intellektual va sport tadbirlarida koʻpchilik tengdoshlarimiz oʻz iste'dodlarini namoyon qildi. Nufuzli xalqaro fan olimpiadalari gʻoliblari, iqtidorli sportchilar va tadbirkor yoshlar bilan uchrashuv havda muloqotlar bizda unutilmas taassurot qoldirdi. Taniqli san'atkorlar ishtirokidagi konsert dasturi koʻngillarimizga cheksiz zavq-shavq bagʻishladi.

Eng asosiysi, agar oʻzimizning bilim va tafakkurimiz, kuchgʻayratimiz va shijoatimizga suyansak, ulkan bunyodkor kuchga aylanishimiz mumkinligini yanada chuqurroq his qildik.

Darhaqiqat, soʻnggi yillarda mamlakatimizda yoshlarning hayotiy manfaatlarini ta'minlash, ularning orzu-intilishlari, qobiliyat va iste'dodini roʻyobga chiqarishga qaratilgan keng koʻlamli ishlar bajarilmoqda.

Ayniqsa, soʻnggi bir yarim yilda Prezidentimiz yoshlar bilan uch marta uchrashgani koʻp narsadan dalolat beradi. Yosh avlod vakillari bunday muloqotlardan oʻzlari uchun juda katta kuch-quvvat oldi.

Bugun aksariyat tengdoshlarimiz davlat boshqaruvi organlarida, zamonaviy korxona va tashkilotlarda, ta'lim muassasalarida, qoʻyingki, hayotimizning barcha jabhasida qizgʻin faoliyat yuritmoqda.

Bu yil iqtidorli talabalar uchun Prezident granti, mamlakamizdagi xorijiy oliy oʻquv yurtlarining talabalari uchun ham Prezident va davlat stipendiyalari ta'sis etilgani, farzandini shartnoma asosida oʻqitayotgan oilalarga imtiyozli ta'lim krediti berish amaliyoti yoʻlga qoʻyilgani bizni juda ruhlantirdi.

Qadrli yoshlar!

Bugun xalqimiz, jonajon Vatanimiz, Prezidentimiz biz kabi yoshlardan buyuk ishlarni kutmoqda. Oʻzimizga bildirilayotgan ulkan ishonchni oqlash, el-yurtimiga munosib farzand boʻlish uchun barchamiz, avvalo, maqsadni toʻgʻri belgilab olib, hamisha olgʻa intilib yashashimiz zarur.

Har birimiz a'lo oʻqishimiz, halol mehnatimiz, yuksak natija va yutuqlarimiz, kerak boʻlsa, namunali xulq-u odobimiz bilan tengdoshlarimizga oʻrnak boʻlishimiz lozim.

Biz bunga qodirmiz. Chunki biz – Xorazmiy, Fargʻoniy, Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ulugʻbek, Navoiy, Bobur, Buxori-yu, Termiziylar avlodimiz.

Siz aziz doʻstlarimizni hozirgi notinch va murakkab davrda, globallashuv va raqobat muhitida doimo sezgir va ogoh boʻlib yashashga, yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalikni asrab-avaylashga da'vat etamiz.

Hayotdagi har qanday sinov va qiyinchiliklarni shijoat va qat'iyat bilan yengib, barcha jabhada Prezidentimizga kamarbasta boʻlib, ona Vatanimizga sadoqat bilan xizmat qilish hayotiy maqsadimizga aylansin!

Aziz Vatanimizning haqiqiy tayanchi va suyanchi boʻlib, yurtimizda Yangi Oʻzbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishga munosib hissa qoʻshaylik!

*Zomin tumani*
*Peshagʻor qishlogʻi*
*2021-yil 28-avgust*

31-AVGUST – QATAGʻON QURBONLARINI YOD ETISH KUNI

# HURRIYATNI AZIZ BILGANLAR HURMATI

***Hurriyat. Uning qadr-qimmatini istilochilarning zulmi, zugʻumidan aziyat chekkan, ularning shum va makkor niyatini aql koʻzi, teran idrok bilan ilgʻay olgan ajdodlarimiz muqaddas bilganlar.***

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 1-maydagi "Qatagʻon qurbonlarini yod etish kunini belgilash toʻgʻrisida"gi farmoniga koʻra, mana yigirma yildirki, mamlakatimizda Mustaqillik bayrami arafasida 31-avgust – Qatagʻon qurbonlarini yod etish kuni sifatida nishonlanadi.

Shoʻrolar zamonida "qatagʻon", "repressiya" soʻzlari millionlab xazon boʻlgan umrlar, hayotdan bevaqt koʻz yumgan insonlar, ularning parokanda oilalarini, tarixning chigal sahifalari-yu, mustamlakachilarning asl qiyofasi, maqsad-muddaolarini oʻzida pinhon etgani rost. Tarixchi olimlar oʻtmishning gohi oq, gohi qora dogʻlari, deb talqin etgan bu ogʻir kunlar, yillar, oʻtmishning ogʻir silsilasi mustabidchilik gʻoyasining insonni oʻzligidan, ma'naviyati, tarixi, milliy ori-gʻururidan mosuvo etish, uni manqurtga, qulga aylantirishdek mudhish niyatlarni koʻzlagani endi hech kimga sir emas!

El-yurtimiz ozodligi va erkinligi yoʻlida, xalqimizning qadr-qimmati, or-nomusini, milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizni himoya qilishda, bosqinchi va yovuz kuchlarga qarshi mashaqqatli kurashlarda qurbon boʻlganlar xotirasi minnatdor avlodlar yodida abadiy saqlanib qolishi, mustabid tuzum davrida million-million begunoh insonlarning umri xazon boʻlganini, qancha-qancha oilalar xonavayron boʻlib, qancha-qancha goʻdaklar yetim qolganini tarix, bugungi va kelajak avlod hech qachon unutmasligiga oid fikrlar istiqlol yillaridan boshlab yanada baralla yangradi.

Xalqimizning ana shunday ming-minglab fidoyi va matonatli oʻgʻil-qizlarining xotirasini eslash, haqiqat va adolatni tiklash, zamondoshlarimiz, xususan, oʻsib kelayotgan yosh avlod qalbi va ongida oʻtganlar xotirasiga hurmat ruhini shakllantirishga e'tibor kuchaydi.

Mamlakatimizda "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi barpo etildi. "Shahidlar xotirasi" jamoat fondi, Qatagʻon qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda hududlardagi oliy ta'lim muassasalari qoshida uning boʻlimlari tashkil etildi.

Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Choʻlpon, Abdulla Qodiriy kabi ulugʻ ma'rifatparvar ajdodlarimiz xotirasiga bagʻishlangan muhtasham haykallar, muzeylar bunyod etildi, ijod maktablari faoliyati yoʻlga qoʻyildi. Siyosiy qatagʻon yillarida nohaq qurbon boʻlgan yurtdoshlarimizning nomlarini aniqlash, ularning qoldirgan merosini oʻrganish va keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, badiiy va hujjatli asarlar yaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 8-oktabrda qabul qilingan "Qatagʻon qurbonlarining merosini yanada chuqur oʻrganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi farmoyishiga muvofiq mazkur yoʻnalishdagi ishlar yangicha ma'no-mazmun, shahd-u shiddat oldi, desak yanglishmaymiz.

Tegishli tarzda komissiyalar, ishchi guruhlar tuzilib, "Yoʻl xaritasi" belgilandi. Arxivlar, ma'rifat maskanlari, huquq idoralarida olimlar, tarixchi va ekspertlarning ishlari yanada avj oldi. Aslida bu boradagi barcha ishlarning cheki, hududi, changalzor-u chakalakzorining adogʻi yoʻq, qorongʻu oʻrmonda ming mashaqqat bilan olib borilayotgan ishlarga qiyoslasak, boʻladi. Tarixchilar, olimlar, ekspertlar, tegishli soha mutaxassislari tinim bilmadilar. Qanchadan qancha ajdodlarning pok nomlari tiklandi.



Istiqlol bayrami arafasidagi munavvar tonglarda haqiqat aslo sinmasligi yana bir karra aniq boʻldi.

**Nazokat USMONOVA,**
**OʻzA muxbiri**

JARAYON



# ILM ESHIKLARI DOIM OCHIQ

***Oliy ta'lim sohasidagi islohotlar, avvalo, qamrovni oshirish, o'quv yurtlarining moliyaviy holatini yaxshilash, professor-o'qituvchilarni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilmoqda. Jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 16-iyun kuni oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida sohadagi 4 ta ustuvor vazifa ko'rsatib o'tildi.***

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

Birinchisi, oliy ta'lim muassasalari boshqaruv kengashlarining rolini oshirish va kafedralar vakolatlarini kengaytirish. Ikkinchisi, o'quv jarayonini bozor talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviyligini ta'minlash va talabaning o'z ustida ishlashi uchun muhit yaratish. Uchinchisi, oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish. To'rtinchisi, professor-o'qituvchilar va talabalar uchun qog'ozbozlikni kamaytirish, sohani raqamlashtirish orqali byurokratiya va korrupsiyani keskin qisqartirish.

Oliy ta'lim muassasasining asosiy maqsadi kelajak avlodni bilimli va malakali etib tarbiyalash, jahon standartlariga mos mutaxassislar tayyorlash ekan buni Axborot-resurs markazlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buning uchun ta'lim muassasalarida Axborot-resurs markazlarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash, ish faoliyatini avtomatlashtirish, RFID texnologiyalarini joriy qilish, o'quv va ilmiy, mahalliy va xorijiy adabiyotlar bilan ta'minlash, jahon elektron ta'lim bazalaridan foydalanish, zamonaviy xizmat turlarini joriy etish, masofadan foydalanish uchun elektron kutubxonalar yaratish, fondini boyitish, oliy ta'lim muassasalarining yig'ma elektron katalogini tashkil etish, xodimlarning xorijiy oliy ta'lim muassasalari kutubxonalarida malakasini oshirish, xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan mutaxassislar taklif etilgan holda konferensiyalar, uchrashuvlar, mahorat darslari o'tkazish zarur.

Shuningdek, davlatimiz rahbari oliy ta'lim muassasalariga xorijiy davlatlardan o'quv va ilmiy adabiyotlarni to'g'ridan-to'g'ri xarid qilish vakolatini berish, oliy ta'lim muassasalari fondidagi 4 millionga yaqin adabiyotlarni to'liq elektron shaklga o'tkazish zarurligini qayd etdi. Yangi o'quv yiliga qadar barcha oliy ta'lim muassasalari kutubxonalarini yagona tizimga ulash, talaba va tadqiqotchilar uchun tun-u kun foydalanish imkoniyatini yaratish vazifasi qo'yildi. Endi oliy ta'lim muassasalari o'z Axborot-resurs markazlariga katta e'tibor qaratishi, markazi rivoji uchun zarur mablag' ajratishi lozim bo'ladi. Axborot-resurs markazlariga ajratilgan mablag' – bu ta'limga kiritilgan investitsiya, ya'ni kelajakka tikilgan sarmoyadir.

Yevropadagi eng qadimgi oliy o'quv yurtlari Salernodagi Oliy tibbiyot maktabi va Bolonya universiteti (Italiya, XI asr), Parij universiteti (Fransiya, XII asr), Kembrij va Oksford universitetlari (Angliya, XIII asr), Rossiyada Moskva universiteti kutubxonasi nafaqat universitet, balki ommaviy kutubxona sifatida ham ishlagan. O'zbekistonda universitet kutubxonasi 1918-yilda Markaziy Osiyo va Qozog'istonda oliy ta'lim asoschisi hisoblangan Turkiston xalq universiteti, hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti negizida tashkil etilgan.

Universitet kutubxonalariga ilmiy, o'quv va madaniy-ma'rifiy muassasa maqomi berilgan va ularning asosiy vazifasi professor-o'qituvchilar tarkibiga, tadqiqotchilarga, aspirantlarga, talabalarga, o'qituvchi va yordamchi xodimlarga adabiyot, ilmiy va bibliografik xizmatlar ko'rsatish bo'lgan.

Hozirgi zamon axborot-resurs markazlari kutubxonachilik an'analarini saqlagan holda axborot davriga mos ish olib borishi talab etiladi va ular ta'lim muassasalarining o'quv, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini axborot bilan ta'minlash vazifasini bajaradi.

Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazi yuridik fanlar bo'yicha eng boy adabiyot to'plamlariga ega bo'lib, 300 ming nusxadan ortiq mahalliy va xorijiy adabiyotlar saqlanadi. Davriy nashrlar va jahon elektron ta'lim bazalariga ega. Ziyo maskanida qariyb ikki asrlik noyob adabiyotlar ham mavjud.

ARM fondi mahalliy nashriyotlardan tashqari, boshqa universitetlardan, kitob mualliflaridan, xorijiy hamkor oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Glazgo universiteti, Boston huquq maktabi, Nagoya universiteti, London yuridik maktabi, Finlyandiya universiteti, Germaniyaning xalqaro hamkorlik jamiyati va O'zbekiston Respublikasi Qizil yarim oy jamiyati kabi hamkorlardan olingan, kafedralar taklifi asosida xarid qilingan xorijiy adabiyotlar bilan to'ldirildi. ARM fondi universitet professor-o'qituvchilari tomonidan xorijiy huquqiy adabiyotlarning davlat tiliga tarjima qilingan nusxalari bilan boyitilmoqda.

Har yili 100 dan ortiq nomda mahalliy va xorijiy davriy nashrlarga obuna tashkil etiladi. Bundan tashqari, jahon elektron ta'lim bazalari LexisNexis ma'lumotlar bazasining Nexis Uni+TotalPatent On huquqiy bazasiga obuna tashkil etish bo'yicha shartnoma rasmiylashtirilgan. Hozirgi vaqtda universitet professor-o'qituvchilari hamda talabalarning Westlaw, LexisNexis, Springer, EBSO, Sopus, SineDiret, polpred.com bazalaridan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan.

Axborot-resurs markazi boshqa oliy o'quv yurtlari, turli akademiyalar talaba va tinglovchilariga, yuridik texnikumlar, litsey o'quvchilariga, respublika aholisi va qo'shni davlatlar fuqarolariga ham xizmat ko'rsatadi.

**Haytgul PIRMEDOVA,**
**Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazi direktori**

# YURT ISTIQBOLINI BELGILOVCHI KUCH

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Jumladan, 2018-yilda Prezidentimizning tegishli farmoniga muvofiq, "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi tasdiqlanib, tadbirkorlik, startaplar, g'oyalar va loyihalarni amalga oshirishda ko'maklashish va qo'llab-quvvatlash yangi bosqichga ko'tarildi.

2020-yilda mamlakatda yoshlar siyosatini amalga oshiruvchi davlat tashkiloti – Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Yoshlarni rag'batlantirib borish maqsadida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti va "Kelajak bunyodkori" medali ta'sis etildi.

2021-yil – Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili deb e'lon qilinib, Davlat dasturi va yoshlar siyosatini rivojlantirishning 5 yillik strategiyasi ishlab chiqildi. 2021-yilda yoshlar bilan ishlashning mutlaqo yangi tizimi hisoblangan "Yoshlar daftari" va "Yoshlar dasturlari" asosida 430 ming nafar yigit-qizning hayotiy muammolarini hal etish uchun 300 milliard so'm mablag' ajratildi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati parlament faoliyatining yangi bosqichga chiqishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi, desak ayni haqiqatdir. Xususan, oxirgi parlament saylovlarida quyi palata deputatlaringing 9 nafarini yoshlar tashkil etdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari xalqaro maydonda yoshlar manfaatini ifoda etishda ham faol ishtirok etib kelmoqda. Masalan, palataning Yoshlar masalalari bo'yicha komissiyasi raisi Abdullo Aslonov Parlamentlararo ittifoqning Yosh parlamentariylar forumi a'zoligiga saylandi. Parlamentimizdagi ijobiy o'zgarishlar taniqli siyosatchi, Parlamentlararo Ittifoqning Bosh kotibi janob Martin Chungong tomonidan yuqori baholandi. Xususan, dunyo aholisining yarmidan ko'pini 30 yoshgacha bo'lgan insonlar tashkil etsa-da, dunyo bo'yicha yosh deputatlar ulushi 2,6 foizga ham yetmasligi, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 6 foizni tashkil etishi ta'kidlandi.

Yoshlarning siyosiy faolligini oshirish, ularni qonun ijodkorligi jarayoniga keng jalb qilish maqsadida 2020-yil Parlamentning ikki palatasida alohida Yoshlar parlamentlari tashkil etildi va ularga jami 350 nafar faol yoshlar saylandi.

Yoshlar parlamenti o'tgan davr mobaynida mamlakatimizning parlamentarizmi sohasida o'z o'rnini topdi. Bugungi kunda ushbu tuzilma tom ma'noda, parlament va yoshlar o'rtasida ko'prik vazifasini o'tamoqda. Yoshlar parlamenti a'zolari Qonunchilik palatasi, fraksiya va qo'mitalar majlislarida doimiy ravishda ishtirok etib kelmoqda.

Joriy yilning 22-iyun kuni Yoshlar parlamenti a'zolari Qonunchilik palatasida Parlamentlararo Ittifoqning bosh kotibi janob Martin Chungong ishtirokida "Men parlamentda yoshlarni qo'llayman" chorlovi ostida tashkil etilgan Yoshlar forumida ishtirok etdi.

2017-yilning 19-sentabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasida yoshlar huquqlarini ishonchli himoya qiluvchi mexanizmni tashkil etishda BMTning "Yoshlar huquqlari to'g'risida"gi xalqaro Konvensiyasini ishlab chiqish va qabul qilish tashabbusini ilgari surganini alohida ta'kidlash joiz. Bu g'oya jahon hamjamiyati tomonidan



dolzarb masala sifatida iliq qabul qilingani ham dunyoda yoshlar masalalari katta ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Shuningdek, joriy yil 22-fevral kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46-sessiyasidagi nutqida Yoshlar huquqlari bo'yicha maxsus ma'ruzachi institutini ta'sis etishni taklif etdi.

"Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiyada O'zbekiston tomonidan Yoshlar masalasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida doimiy faoliyat yuritadigan Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari yoshlari kengashini tuzish tashabbusi ilgari surildi.

Mazkur tashabbusning mantiqiy davomi sifatida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchinchi Maslahat uchrashuvida davlatimiz rahbari kelgusi yilda O'zbekistonda Markaziy Osiyo yoshlari forumini o'tkazishni taklif etdi. Bu mamlakatlarimiz hukumatlari va yoshlari o'rtasida ishonch va do'stlikni mustahkamlash, interfaol muloqotni yo'lga qo'yish uchun platforma shakllantirishda muhim qadam bo'ladi.

Ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, yoshlarga oid davlat siyosatini jadallashtirish borasida qonunchilikni takomillashtirish, uning ijrosi ustidan ta'sirchan parlament nazoratini amalga oshirish ishlari davom etadi va bu parlament foliyatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi. Zero, davlatning strategik resursi bo'lmish yosh avlod yurtimiz istiqbolini belgilovchi kuch, yorug' kelajagimiz bunyodkoridir.

**Odiljon TOJIYEV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosari**

YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI
XORAZM VILOYATI BOSHQARMASI

# MUSTAQILLIK BAYRAMINGIZ QUTLUG' BO'LSIN!

*Aziz yurtdoshlar, hurmatli yoshlar! Sizlarni diyorimizda keng nishonlanayotgan Mustaqillik bayrami bilan qutlaymiz! Vatanimiz ravnaqi yo'lidagi mehnatlaringizda omad yor bo'lsin.*

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGINING XORAZM VILOYATI BOSHQARMASI



®

# СТРАНА праздничная






## Вкусный конкурс





***Посольство нашей страны в Баку (Азербайджан) по случаю 30-летия независимости республики организовало Неделю узбекской кухни.***

В онлайн-конкурсе активно участвовали более 60 человек. В социальных сетях опубликовано почти 600 материалов, посвященных богатой истории, культуре и традициям нашего народа, особенностям национальной кухни. Особой популярностью пользовались публикации о самсе, плове, лагмане, гуль-хануме.

Победила группа из трех поклонников узбекской кухни, опубликовавшая многочисленные фотографии и видео с красочными национальными блюдами, которые приготовили лично. Самые активные участники награждены грамотами и ценными призами.

## Летопись славных дел

***Издательство «O'zbekiston» выпустило в свет книгу-альбом «Новый Узбекистан». Сборник рассказывает о масштабной работе по строительству нового государства и общества, проведенной за последние пять лет.***

Открывают рассказ слова Президента Шавката Мирзиёева: «Пройдут годы, века, но государственная независимость Республики Узбекистан, достигнутая несравнимым героизмом и стойкостью нашего народа, восстановившая нашу национальную государственность, ценность человека, нашу гордость и честь, веру и убеждения, всегда будет оставаться яркой страницей в славной истории нашей Родины».

В книге собраны архивные документы и аналитические материалы. Раздел «Новая эпоха нашего национального развития» посвящен коренному обновлению жизни страны. Публикации сопровождаются объективными заключениями экспертов и аналитиков.

## Участвуй в челленджах!




***В социальных сетях запущено несколько праздничных флешмобов, посвященных Дню независимости.***

Общенациональное движение «Юксалиш» призывает всех объединиться под хештегом #MenUchunQadrli (#Ценю). Пользователи могут опубликовать на своих страницах в соцсетях фотографии или видео, на которых запечатлены ценные воспоминания, впечатления, связанные с Узбекистаном, и разместить под ними краткий комментарий-описание. Памятные места, исторические здания или предметы, интересные случаи, личные достижения и успехи, семейные снимки – темы публикаций могут быть самыми разными.

«Что для меня значит независимость?» – ответить на этот вопрос предлагают организаторы конкурса #Mustaqillik2021 в лице Международного фонда развития науки и образования Ziyo Forum. Авторов самых креативных фото и видео наградят ценными призами.

## Космический подарок

***Молодые ученые запустили в стратосферу аэростат с флагом Узбекистана.***

Летательный аппарат поднялся на высоту 46 километров над землей. Проект, осуществленный при поддержке Министерства инновационного развития, разработчики посвятили 30-летию независимости страны.



В Узбекистане для поддержки талантливых юношей и девушек создаются Академия молодых ученых и Технопарк молодежи, на базе которых будут действовать современные лаборатории и полигоны. В настоящее время авторы инновационных идей и стартапов могут также получить поддержку в Национальном офисе инноваций, действующем на базе Научно-практического центра инновационных разработок.



## На купюрах – Самарканд и Ташкент

***В преддверии самого великого, самого дорогого праздника в обращение поступили новые банкноты номиналами 5000 и 10000 сумов.***

Тематика денежных купюр, отпечатанных на защищенной бумаге, посвящена Великому шелковому пути и истории древних городов Узбекистана.

Так, на банкноте 5000 сумов изображены медресе Шердор и руины Афросиаба в Самарканде, крылатый барс – символ этого города, а также керамический кувшин и ляган, найденные при раскопках. Десятитысячную купюру украшают изображения медресе Кукельдаш в Ташкенте и самого древнего памятника на территории столицы – городища Шоштепа, а также образцы древнего ремесла региона в виде керамического подноса и бытовая посуда X века.

Банкноты снабжены специальными рельефными элементами, благодаря которым лица со слабым зрением могут определить на ощупь достоинство номинала.




## Лучше один раз увидеть...

***Агентство кинематографии Узбекистана подготовило подарок – художественные фильмы разных жанров.***

Снятые по заказу агентства киноленты «Орзулар канотида» («На крыльях мечты»), «Сумбул» («Гиацинт»), «Миллионер Джонибек», «Хайрат» («Удивление»), «101 рейс», «Авлоний», «Мукимий» будут впервые показаны на телеканалах нашей страны.

Акция пройдет в рамках месячника кино.

Полосу подготовила Алина ЯГОДКИНА

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана www.yoshlarovozi.uz yoshlarovoziuz@mail.ru @yoshlarovozi @yoshlarovozi № 31 (16437) 2021-YIL 1-SENTABR 7












# СОЗДАТЕЛИ ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА

*(Окончание. Начало на 1-й стр.)*

**– Ровесник независимости – особое звание, которое не позволяет жить только для себя. Человек мужает вместе со страной, сверяет свои поступки по ее делам. Помните, когда впервые услышали это значимое сочетание в свой адрес?**

– Помню потрясающее событие, связанное с днем рождения свободного Узбекистана. Всем выпускникам девятых классов предоставили возможность поступать в лицеи и колледжи без экзаменов. В первую очередь окончившим школу с отличием. Я выбрала лучшее учебное заведение своего города – академический лицей №1 при Кокандском государственном педагогическом институте. Тогда в полной мере ощутила, насколько почетно быть ровесницей независимости.

Это чувство не покидает меня по сей день: собственного развития не мыслю вне жизни страны. Конечно, таким образом измерять свой возраст приятно, но и очень ответственно. Находишься в состоянии, когда тебе до всего есть дело.

**– В каком возрасте осознали смысл праздника? Поделитесь самыми теплыми воспоминаниями из детства о Дне независимости.**

– С замиранием сердца девчонкой смотрела на салют, догадываясь, что происходит что-то важное. Завораживали праздничные программы, невозможно было оторваться от телевизора. И наш Коканд торжественно преображался.

С каждым годом все глубже осознаю значимость независимости для нашего государства. Особенно на фоне последних событий в мире. На фоне нестабильности, разрушения в некоторых странах по-другому оцениваешь свободу, спокойствие, чистое небо. Они рождают уверенность в завтрашнем дне, в будущем своих детей. Материнство дало мне ощущение того, что мир и стабильность – главное в жизни человека. От страны, в которой живешь, зависит твое будущее, будущее твоей семьи, твоего народа.

**– Где искать корни вашей активности? Брали пример с родителей, наставников?**

– Примером для подражания всегда были родители и бабушка, имеющая огромный опыт в сфере юриспруденции. Удивительная личность! Проработала 40 лет (была судьей, адвокатом, нотариусом), мать шестерых детей, человек с активной гражданской позицией, совмещала в одном лице свойственную профессии твердость и нежность к близким, мужественность и женственность, мужскую хватку и безграничную заботу. Когда я училась в пятом классе, в школе объявили конкурс «Мой кумир». Написала о бабушке и заняла первое место.

Конечно, большую роль сыграли учителя, наставники. Каждый привнес что-то свое, стимулируя интерес к жизни общества.

**– Нет сомнений, что параллельно учебе вы разворачивали бурную деятельность в школе, лицее, университете.**

– В школе любила проводить разные конкурсы, особенно «Алло, мы ищем таланты!». Ведь это так здорово – помогать сверстникам открывать себя, преодолевать стеснение, обретать уверенность и совершенствоваться в атмосфере состязательности! В лицее активно занимались благотворительностью: обучали английскому языку детей из малообеспеченных семей. Было развито event-волонтерство. А в университете, помимо участия в событиях альма-матер, помогала как волонтер-переводчик на международных конференциях, спортивных и культурных мероприятиях. Знание английского и немецкого позволяло работать в тесном партнерстве с зарубежными экспертами. Эти контакты расширяли кругозор, у меня появились друзья во многих странах.

**– Чем для вас стало присуждение Государственной премии имени Зульфии? Является ли творчество народного поэта Узбекистана руководством по жизни?**

– Престижная награда для девушек открыла передо мной новые пути, стала огромным стимулом. Поступление на факультет зарубежной филологии Национального университета Узбекистана без экзаменов освободило от ненужных волнений, появилось резервное время для работы над собой. Я снова попала к лучшим преподавателям, отдающим душу своему предмету. Встречи со сверстниками научили внимательнее относиться к каждому своему слову, анализировать ситуацию. Став одной из «дочерей» Зульфии, глубже осознала ценность национальных традиций, богатство и красоту государственного языка. Зульфия Исраилова являет не только пример поэта-гражданина. Она – символ патриотизма, верности, стойкости, заботы о ближнем. Символ узбекской женщины. Образец не для одних обладательниц премии. Обращаясь к девушкам как к сестрам, подругам, оставила свои заветы для многих поколений.

**– Подрастающее поколение Узбекистана знает вас как инициативного руководителя детской организации «Камалак». Какие проекты ДО считаете лучшими, а какие оказались не до конца продуманными? Есть любимый?**

– Детская организация «Камалак» – один из лучших и самых долговечных проектов Союза молодежи. Школа лидерства, воспитания, где не только мы воспитывали детей – они преображали нас. Своей активностью, бесконечными идеями и неутомимостью побуждали постоянно работать над собой, идти в ногу со временем и с нашими мальчишками и девчонками, проникаясь их интересами. «Камалаку» уже двадцать лет. Мне довелось стать шестым руководителем этой организации.

Лучшим проектом ДО «Камалак» считаю систему «Сардорлар». Совет лидеров координировал деятельность по всем регионам. По сей день организация – кузница перспективных кадров. Научившись работать в команде, ребята не представляют жизни, ограниченной рамками собственного мирка.

Есть и любимый, называю его находкой наших лидеров в сфере медиа, службы информации. Руководитель пресс-службы одиннадцатиклассник Хусниддин Исаков организовал республиканский медиафорум «Камалак», собравший лучших представителей СМИ из всех регионов. Эти ребята пополняют контент социальных сетей полезной для детей информацией. Радует, что проект продолжается и развивается. Приятно видеть достижения ребят в данной сфере.

Не довели до конца проект по предотвращению буллинга в школе. Наверное, не хватило ресурсов и научно-педагогического потенциала. Если доработать (кстати, этим занимается новое руководство ДО) систему, она станет реальной помощью детям, которые подвергаются травле. Согласно статистике, от буллинга страдают 85 процентов учащихся. Чтобы достичь желаемых результатов, нужно тесно сотрудничать с детским Омбудсманом.

**– Что изменилось в Союзе молодежи Узбекистана с созданием Агентства по делам молодежи?**

– Союз молодежи Узбекистана – самая крупная ННО в области молодежной политики. Функции госоргана, которые были на него возложены, перешли к вновь созданному Агентству по делам молодежи. Новая структура поддерживает деятельность соответствующих ННО, в частности самого Союза и его подведомственных организаций (Совет молодых творческих людей, Совет молодых ученых, Центр поддержки детей и молодежи с ограниченными возможностями и другие).

Агентство выделяет гранты, субсидии на реализацию социально значимых проектов, также регулирует вопросы государственной молодежной политики. Это мост между подрастающим поколением и правительством. Предложения юношей и девушек, которые высказывались на форумах и встречах с руководством страны, нашли отражение в указах и постановлениях Президента: проблемы, волнующие молодежь, подвергаются глубокому анализу.

**– Вы входите в топ-35 женщин с активной гражданской позицией – такой рейтинг в 2020 году составили специалисты Общенационального движения «Юксалиш». Можете сказать, что один из показателей Агентства по делам молодежи – гендерное равенство и далеко не слабый пол по профессиональным качествам не уступает сильному?**

– Так и есть. Гендерная политика, осуществляемая в стране, находит отражение в госорганах, в частности в нашей структуре. И во всех сферах. Предвзятого отношения ни по отношению к себе, ни по отношению к коллегам никогда не наблюдала. К нам прислушиваются, наше мнение уважают. Последние тенденции – увеличение числа женщин в руководстве. Они успешно трудятся в Законодательной палате, в Сенате, в местных органах (в республике шесть женщин-хокимов) власти. Вера в женщину (кстати, именно этой верой пронизано все творчество Зульфии) дает положительный резонанс в обществе. Многие девочки понимают, что нужно учиться, приобретать любимую профессию, для них созданы новые возможности и каждая способна внести свой вклад в развитие экономики, искусства, стать специалистом в области политики.

**– Молодость – время самых дерзких мечтаний, желания изменять мир. Какие новые проекты запущены в последние годы?**

– Многие проекты инициированы главой государства на декабрьском молодежном форуме 2020 года. В сфере образования и пяти инициатив, поддержки научных изысканий и стартапов, предпринимательства, инноваций, по обеспечению содержательного досуга, по активизации деятельности девушек... В частности, это инициатива One Million Uzbek Coders, молодежные фестивали, новые кружки, функционирующие во всех отдаленных уголках Узбекистана, президентские гранты отличившимся абитуриентам, набравшим самые высокие баллы, льготные кредиты на образование, бизнес-марафоны... Можно долго перечислять. У кого возникнет особый интерес к теме – заходите на наш сайт yoshlar.gov.uz, на странички в социальных сетях, чтобы быть всегда в курсе событий.

**– Такое количество проектов невозможно осуществить собственными силами. Наверняка у вас есть бескорыстные помощники.**

– Быстрыми темпами развивается волонтерское движение. В 2019 году Президент подписал Закон «О волонтерской деятельности». Уже создана Ассоциация волонтеров Узбекистана, которая объединила около ста молодежных групп. Агентство открыло 14 школ волонтеров во всех регионах. Обучение ведут тренеры-менторы по трехмесячной программе, включающей теоретические и практические занятия. Запущены волонтерские центры в 28 вузах республики. Они помогут реализации социально значимых проектов. В настоящее время работаем над методическим пособием и совместно с международными организациями над тематическим социальным роликом.

Волонтеры – локомотив, драйвер формирования и укрепления гражданской позиции подрастающего поколения. Этой группе активной молодежи уделяется особое внимание, что способствует продвижению социальных инициатив и благотворительности. Немаловажный фактор, к примеру, во время пандемии, когда люди особенно нуждаются в поддержке.

**– Молодежь отлично проявила себя в нелегкий для страны 2020 год. Задействована ли она в антиковидных мероприятиях 2021-го?**

– В 2020-м в связи с масштабным локдауном привлекали юношей и девушек к раздаче продуктов питания, лекарств, средств первой необходимости. В этом году отпала надобность в подобных мероприятиях, но группы всегда в состоянии готовности.

Планируем задействовать на предстоящих выборах волонтеров из числа получивших компенсацию за отличное знание иностранного языка. Также участников проекта Ibrat Language Camp, в совершенстве владеющих английским, немецким, французским и другими иностранными языками. Будут сопровождать зарубежных наблюдателей в качестве переводчиков.

**– Вы сами перенесли коронавирусную инфекцию. Заболевание натолкнуло на какие-то мысли?**

– Нельзя проявлять беспечность. Нужно беречь себя и своих близких, соблюдая все меры безопасности. Отношение к карантинным ограничениям – проверка ответственности каждого. Ряда заражений можно было бы избежать, прояви наши граждане максимум заботы о других.

**– Формирование коллективного иммунитета невозможно без массовой вакцинации. Вакцинировались ли сотрудники Агентства по делам молодежи?**

– Все добровольно получили уже вторую дозу (предлагалось три разновидности: ZF-UZ-VAC2001, «Спутник V», Moderna) вакцины. У наших сотрудников высокое чувство ответственности.

**– Не могли обойти этот животрепещущий вопрос. Вернемся к деятельности агентства. В частности, к его роли в формировании культуры чтения.**

– Разработана Национальная программа, направленная на формирование и развитие культуры чтения населения, в частности молодежи, рассчитанная на период до 2025 года. Предусмотрен ряд мероприятий. На первом этапе это укрепление нормативно-правовой базы, 2022–2023 годы – развитие инфраструктуры (пополнение фонда региональных библиотек и библиотек общеобразовательных школ), создание новых уютных ресурсных центров. 2025-й – реализация проектов, ориентированных на развитие интереса и поощрение читателей. На сегодняшний день выпущено 600 тысяч книг в серии «Молодежная библиотека». Они розданы во все школьные библиотеки. На реализацию проекта выделено более семи миллиардов сумов. Это лучшие произведения отечественной и зарубежной литературы, рекомендованные экспертами. Проводим конкурсы «Юный читатель», «Лучшая молодая читающая семья». В качестве поощрения победители получают подарок Президента – автомобиль Spark и денежные вознаграждения.

С октября 2021 года будем поощрять молодых авторов, создающих актуальные современные произведения. У конкурса солидный призовой фонд: 100, 75 и 50 миллионов за первое, второе и третье место соответственно. Думаю, это тоже хороший стимул для развития культуры чтения.

**– Как продвигается работа по реализации пяти инициатив?**

– Масштабный проект стартовал в махалле «Бустон» Бостанлыкского района, в Куйичирчикском районе Ташкентской области и Учтепинском районе столицы. Плодотворные результаты позволили продолжить внедрение пяти значимых инициатив в 168 махаллях 42 отдаленных районов республики. Целенаправленно создавалась инфраструктура: строились спортивные школы, культурные центры, реконструировались и оснащались необходимым инвентарем школы музыки и искусства. Информационно-ресурсные центры укомплектовывали необходимой литературой, компьютерные классы – новейшим оборудованием. Пять инициатив получили признание повсеместно.

Если юноша или девушка вошли в «молодежную» тетрадь, им необходима финансовая поддержка для приобретения музыкальных инструментов, спортинвентаря, участия в международных конкурсах, фестивалях, спортивных состязаниях, из средств фонда «Ёшлар дафтари» на эти цели выделяется определенная сумма.

Во всех регионах проведены фестивали, на которых молодежь получила возможность озвучить свои проблемы местному руководству, общалась с министрами и их замами.

**– Представить современное общество без интенсивного развития научной мысли невозможно. Какую роль отводите исследованиям молодых?**

– Есть целый департамент по науке. Ожидается утверждение новой структуры. Теперь вопросами науки и образования будут заниматься специалисты вплоть до районных и городских отделений Агентства по делам молодежи. В комплексе, который я курирую, особое внимание уделяется научной деятельности девушек. Через совет молодых ученых выделяем гранты на инновационные проекты. В прошлые годы поддержали разработки 20 молодых ученых, выделив им 200 миллионов сумов.

**– Молодые предприниматели тоже в поле вашего зрения. Наверняка они не только вдохновляются поддержкой, но и сами делятся опытом.**

– Агентство оказывает поддержку тем, кто находится на старте предпринимательской деятельности. Речь идет о внесенных в «молодежную» тетрадь, собирающихся открыть пекарни или попробовать себя в сфере услуг. Фонд «Yoshlar – kelajagimiz» помогает молодым людям в разработке бизнес-проектов, чтобы они могли получить кредит в банке, обучает правильному ведению своего дела, оказывает консалтинговые услуги. Фонд привлекает лучших из лучших. Это Хасан и Хусан Мамасаидовы, Зафар Хашимов, Мурод Назаров и другие отечественные предприниматели, которые мотивируют юношей и девушек на создание собственного бизнеса. Более 92 тысяч человек за год получили льготные кредиты. В результате их деятельности создано свыше 42 тысяч рабочих мест. Хороший результат, тем более что цифры растут. Думаю, недавняя встреча Президента с предпринимателями даст новый импульс развитию этой сферы.

**– Часто ли приходится выезжать в регионы, чтобы оказывать конкретную помощь на местах?**

– Раньше приходилось делать это постоянно. С введением электронной платформы «Молодежная тетрадь» уже нет такой надобности. Появилась возможность работать с каждым, у кого есть проблемы, индивидуально. Выезжаем лишь для того, чтобы проверить, насколько результативно действует система. По онлайн-заявкам, которые поступают к нам напрямую через call-центр 1093, социальные сети, платформу yoshlardaftari.uz, можно осуществлять контроль не только деятельности Агентства по делам молодежи, но и секторов, государственных органов в регионах: выполняются ли с должной ответственностью функции, возложенные на данные структуры в указах, постановлениях и других нормативно-правовых актах? Представленная информация отражает решение молодежных проблем.

**– Какие мероприятия по адресной поддержке разных категорий юношей и девушек осуществлены и планируются в Год поддержки молодежи и укрепления здоровья населения?**

– Планируется продолжение проекта «Молодежная тетрадь». Это единовременная материальная помощь, субсидии до десяти миллионов сумов для начала собственного бизнеса, оплата за обучение вождению выпускников домов «Мехрибонлик», прохождение службы в мобилизационно-призывном резерве, выделение средств на лечение, на аренду нежилого помещения для ведения предпринимательской деятельности, для оказания психологической помощи... Это и компенсации знатокам иностранного языка, имеющим самые высокие рейтинговые позиции. Уже выделено более 500 миллионов сумов, двум тысячам молодых людей будет выплачено два миллиарда сумов. То есть поддержка адресная, индивидуальная.

**– Насколько Агентство по делам молодежи доступно для своего адресата?**

– У нас деятельность руководства и сотрудников агентства оценивается по системе KPI (ключевой показатель эффективности). Один из важных параметров – установление обратной связи. Идет мониторинг нашей активности в социальных сетях и обращений к нам молодежи в виде sms-сообщений, комментариев. Почти у каждого заместителя и у руководителей отделов и департаментов есть свои Telegram-каналы. Предусмотрена система быстрого реагирования, для чего организован совет молодых консультантов, куда входят представители всех регионов.

**– Кадровый вопрос называют одним из самых сложных. Как работаете с резервом?**

– Совместно с АРГОС (Агентство развития государственной службы). Создается резерв на всех уровнях, по горизонтали и вертикали государственной власти. Молодежный парламент – завтрашние депутаты, законотворцы. К каждому хокиму, министру, руководителям госорганов на местах прикрепляются молодые кадры. Самые перспективные входят в клуб «Келажак лидерлари». Они имеют возможность стажироваться за рубежом, проходить обучение в Академии государственного управления, а также в Институте изучения проблем молодежи и подготовки перспективных кадров. Система имеет много наработок и механизмов подготовки. Такие сотрудники гораздо быстрее адаптируются в новой среде и дают положительный результат.

Сейчас работаем над проектом по системе волонтерской стажировки. Молодые люди с образованием, студенты могут подать заявки для прохождения стажировки в любом государственном учреждении, ведомстве. Прием на конкурсной основе. Прошедший отбор волонтер три месяца обучается, работая бесплатно. В зависимости от результатов принимается на работу на год или на постоянной основе. Это поможет подготовить сотрудников для министерств и ведомств, что является хорошим механизмом создания кадрового резерва.

**– Как привлекаете к работе активистов?**

– Исключительно добровольно. Даем заявку. Объявляем набор по определенным критериям. Наши ряды открыты для всех – в качестве волонтеров, организаторов, менторов, спикеров. Стараемся привлечь активных молодых людей как партнеров, давая импульс для реализации их инициатив. А дальше – цепная реакция. Они собирают вокруг себя команду, а та привлекает других по принципу «равный – равному».

**– В рамках масштабного форума, посвященного Дню молодежи и проходившего под лозунгом «Строители третьего Ренессанса», вам вручена высокая государственная награда. Как восприняли такую оценку своего труда?**

– Как очень приятную неожиданность. Получить орден из рук главы государства – событие незабываемое. Никогда не забуду отеческую улыбку Президента, его радость за меня как представителя инициативных узбекских девушек. Его взгляд выражал доверие. Ощутила в полной мере любовь к молодежи страны, надежду на ее ведущую роль в строительстве Нового Узбекистана. Получила огромную дозу мотивации, мощный стимул работать с еще большим усердием, приложить все знания, старания, усилия, приобретенный опыт, чтобы поднять молодежную политику в стране на более высокий качественный уровень.



**Беседовала**
**Людмила ПОЛОНСКАЯ**







# Qumlarda qolgan QISHLOQ

***Arvoh shaharlar haqida hech eshitganmisiz? Ko'z oldingizda Amerika kinolaridagi qo'rqinchli shaharlar paydo bo'ladi. Ustyurt platosining cheksiz poyonida "Qibla-Ustyurt" qishlog'i bor. U 286 nafar aholisi bo'lgan kichik qishloq. Bu yerliklar o'zlarini "Adashgan jannat odamlari" deb atashadi.***

90-yillarga qadar Qibla-Ustyurt Ustyurtdagi Komsomolsk deb nomlangan. Sobiq sovet davrida bu Orol dengizi bo'yida 500 mingdan ziyod aholisi bo'lgan gullab-yashnagan shahar edi. Aholisi baliq tutish, chorvachilik bilan shug'ullanar, bolalar dengiz qirg'oqlarida o'ynardi. Qibla-Ustyurt o'ziga yarasha zamonaviy edi, bu yerda ikki-uch qavatli uylar, alohida vertolyot uchish maydonchasi, o'z maktabi, bog'i, kichik shifoxonasi bor edi.

Mahalliy aholidan bir kishi bolaligini xo'rsinib eslaydi: "Bizning tumanimiz zamonaviy deb hisoblangan, zarur oziq-ovqat vertolyotda yetkazib berilardi, biz Moskva ta'minotida edik, ammo ... 80-yillarda Orol bir zumda chekindi. Va fojia yuz berdi. Qishloq o'ldi. Hamma keta boshladi. Avvaliga ruslar, keyin biznikilar".

Yagona markaziy ko'cha — Qibla Ustyurt bo'ylab yurar ekansan, bir paytlar qishloq qanchalar obod bo'lganini his etasan kishi. Hozir esa yo'l Ustyurt platosining quruq qumli jarligiga olib boradi. Qishloq ancha ozoda, odamlar mevali daraxtlar ekib qo'yishgan.

Qaysi hovliga kirmang, sizni tabassum bilan kutib olishadi. Hovlilar kichik va shinam. Qishloqdagi tartib va chiqindi yo'qligini alohida ta'kidlash zarur. Bugungi kunda odamlar asosan chorvachilik bilan kun ko'radi, uylardan uzoq bo'lmagan joyda tuya karvonini ko'rdik. "Tuya suti eng to'yimli", — deydi ayollar. "Oling, afsuslanmaysiz".



Yo'lda bir cho'ponni uchratdik, u tuyalarni haydab ketardi. Biz uni gapga tutdik. Yoshligi, elektrchi bo'lib ishlagani haqida gapirdi. Har yili yozda Sochiga va boshqa joylarga dam olgani borgan ekan. Endi u nafaqaga chiqib, tuya boqadi va odamlar uning mehnati uchun ramziy to'lov beradi.

Uzoqda kichik oq bino ko'rinadi. Bu qishloq maktabi, unda hammasi bo'lib 30 ga yaqin bola o'qiydi. Birinchi sinfni uch nafar bola tugatdi. Alifbe bayrami yoki bitiruv kechasi bo'lsa, butun qishloq uchun bayram. Bolalar maktabda o'zlarini yaxshi tutmaslikka imkon ham yo'q, sinf rahbari va direktor qo'shnilaring, biron ayb qilib qo'ysang, darhol kirib uydagilaringga aytishadi. Hamma bir-birinj yaxshi biladi, to'y-ma'rakalar hamqishloqlar bilan o'tadi.



Uyali aloqa deyarli yo'q, "Uzmobile" aloqa operatori ham o'tgan yili kirib bordi. Odamlar offlayn olam – qurilmalar, telefonlar, planshetlarsiz yashaydi. Bolalar to'p tepib, bekinmachoq o'ynaydi. Kattalar uy ishlari, kundalik hayot va bolalar tarbiyasi bilan band.

Qibla-ustyurtlilarning hayoti yagona gaz kompressor stansiyasida o'tadi. Aholining asosiy qismi o'sha yerda ishlaydi. Ko'k darvoza oldida bir ayolni uchratib, uni savolga tutdik: "Nimalar bilan bandsiz?". U mag'rurlik bilan javob berdi: "Men Kompressor stansiyasida asosiy operator bo'lib ishlayman!". Ayol jilmayib, bu yerga 79-yilda Jasliqdan kelin bo'lib tushgani, erini sevib qolganini gapirdi. Ular turmush qurishdi, bolalarni katta qilishdi, qizlarni turmushga berishdi. Ammo bir soniya ham bu qishloqdan ketish haqida o'ylashmadi.

Qahramonimiz stansiyada yaxshi oylik — qo'liga 3 million so'mdan ko'proq olishini aytdi. Faqat bitta tomoni, bozor qishloqdan 300-400 km narida, atrofda dorixona yo'q. Infratuzilma yo'qligi va cho'llanish muammosiga qaramay, aholining chidamliligi va bu joylarni tark etishni istamasliklariga qoyil qolmay iloji yo'q. Bu odamlarning yuzlariga qarasangiz, nima bo'lishidan qat'i nazar baxtiyorlik va samimiylikni ko'rasiz.

Qishloqqa kiraverishda baliqchiga o'xshagan keksa chol turib, qumtepalarga qarardi. Xayolida qachonlardir bu yerga suv qaytishi haqida o'y surardi.

Afsus, xayollar umidligicha, dengiz esa – sarob bo'lib qolmoqda.

**Danil KARIMOV**

# O'TTIZ YILLIKKA MUNOSIB TUHFA

***O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida "30 yillikka 30 kitob" nomli kitoblar taqdimotini o'tkazdi.***

Markaz qoshida 22 nafar olim va mutaxassisni birlashtirgan Xalqaro ilmiy hay'at tuzilgan bo'lib, hay'at yurtimizda islomshunoslikka oid tadqiqotlarni olib borishga innovatsion uslub va yondashuvlarni taqdim etish bilan bir qatorda, diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlarni xalqaro hamjamiyatga yetkazib, erishilgan yutuqlarni keng targ'ib qilmoqda.

Tadbirda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan nashr etilgan kitoblar taqdim etildi. Jumladan, buyuk mutafakkir ajdodimiz Imom Abu Mansur Moturidiy "Ta'vilot al-Qur'on" asari 29-juzining o'zbek tilidagi tarjimasi misrlik olim Ahmad Sa'd Damanhuriy, Turkiyadagi Saljuk universiteti Imom Moturidiy markazi direktori doktor Rejep Tuzju tomonidan yuksak e'tirof etildi.

Shu bilan bir qatorda, yana bir mashhur yurtdoshimiz






Burhoniddin Marg'inoniy qalamiga mansub "Hidoya" asarining o'zbek tilidagi tarjimasi ham tadbir ishtirokchilarini befarq qoldirmadi.

**Aziz TOJIYEV,**
**Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy kotibi**

# 1-sentabr — Mustaqillik kuni



# SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI JAMOASI

Butun mamlakatimiz ahlini eng ulug‘, eng aziz ayyom – Mustaqillik kuni bilan muborakbod etadi! Jonajon Vatanimiz hamisha tinch, xalqimiz hayoti farovon bo‘lsin!



®



**Aziz yoshlar, hurmatli yurtdoshlar!**
**Mustaqillik bayramingiz qutlug‘ bo‘lsin!**
**Hur O‘zbekistonimizning 30 yilligi keng nishonlanayotgan ushbu shukuhli damlarda sizlarga o‘z samimiy tilaklarimizni yo‘llashdan baxtiyormiz! Siz, azizlarga mustahkam sog‘liq, xonadoningizga fayz-u baraka, mehnat faoliyatingizda omadlar yor bo‘lishini tilab qolamiz!**

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGINING JIZZAX VILOYATI BOSHQARMASI JAMOASI



®





# Alpomish zindoni va mening zindonim

***Xalq eposi uning orzu-umidlarini jonlantirgani holda, ramzlar va undovlarni zimmasiga oladi. Alpomish dostonida aytilishicha, Alpomish Qalmoq elida yetti yil zindonga tashlandi. Bu haqda yillar davomida tinimsiz o'yladim. Ammo xulosalarim tarqoq edi. Oxir oqibat, shu fikrga keldim: kim bilsin, Alpomish yetti yilmi, yetti oymi, yetti kunmi zindonda yotgan-yotmaganini. Ammo unga shu asno o'ylab olish uchun vaqt berilgani aniq.***

Yaqinda ziyofatda o'tirib, shu haqda o'ylab qoldim. Atrofdagilar maza qilib raqs tushar, o'zini ko'z-ko'z etar, sarxush qiluvchi ichimliklar serob edi. Xullas, bir qarashda Voland tashkil etgan ziyofat. Bu yerda hamma hayot tashvishlaridan xalos bo'lish, ikki kunlik dunyoda o'ynab-kulish uchun jam bo'ladi va ertaga ko'chada duch kelib, bir-birini tanimaydi. Ularni kuzatish maroqli, biroq odamda xudbinlik bor, shu bois, birinchi o'rinda o'zini kuzatadi.

Aslida, menga shu o'tirish, shu o'yin-kulgi, shu yarim-yalang'och ayollar kerakmi, degan savol qayerdandir paydo bo'ldi-yu lazzatga to'la kechaning boshiga yetdi. Keyin, aynan shu lazzatlar — fahshbozlik, ichkilikbozlik, o'zini ko'z-ko'z etish va allambalo MENlar mening ZINDONim degan qarorga keldim.

Taxminlar o'z isbotini topa boshladi. Alpomish zindonga qanday tushgan edi? U aysh-u ishrat bilan bandi etildi. Va bu maishat zindonda ham Tavka misolida davom etdi. Shunda qo'shni stolga ko'zim tushadi, oh-oh-oh, TAVKAlarning o'tirishini qara. Bular qaysi tarafdan lahm kavlab keldi ekan, deyman o'z-o'zimga.

ZINDONda bo'lish ko'pchilik uchun baxt. Ha, chetdan qaraganda baxt bo'lib ko'rinadi. Bu birgina klubda emas, hamma joyda davom etadi. Uyda, ko'chada, ishxonada, yemakxonada, sartaroshxonada, metroda, bozorda va hatto boshqa aytib bo'lmaydigan joylarda ham. Nega deysizmi, boshida aytganimdek, MENING ZINDONIM MENMAN, sizning zindoningiz siz, uning zindoni u. Buni xohlagancha tuslayvering. Bu ZINDON sizning tana a'zongizdek gap, undan voz kechish oson emas.

ZINDONga tushmaganlar ham bordir deysizmi? Balki... ZINDONga tushmaslik uchun tanovul qilish istagi bo'lmasligi kerakdek, go'yo. Ammo bolalar bundan mustasno. Ayrimlar esa shu ZINDON bilan tug'iladi. Ular bolaligidan narsaga o'ch, maqtanchoq va qizg'anchiq bo'lishadi. Ularni kelajakda katta mansablar kutadi.

Ochig'ini aytib qo'yaqolay, QORAJONning taklifini rad etib bo'lganman. QORAJON KIM? Hozircha aniq bilmayman-u, ammo taqvodor bo'lishga undaganlar shunday ko'rinadi. Taqvodorlik nima? Agar taqvoni o'z ko'nglimdan boshlasam, bu — mening yutug'im, irodam va jannatimdir. Mabodo kimdir turtib shu yo'lga kiritadigan bo'lsa, boshqa turtki bilan yana chiqib ketishim tayin. Odamda tuturiq bo'lishi kerak, axir!

OYBARCHIN deysizmi? O, u juda og'ir masala. Men hamma erlar va ko'ngli kemtiklar qatori, TAVKAlardan OYBARCHINning xislatlarini terib yashashga majburman. Qaysiningdir ko'zi, qaysining so'zi, qaysining erkalanishi o'xshaydi-yu, hammasini bir joyga jamlaguncha o'zing sochilib ketasan, kishi.

Qulog'imga hirsni qitiqlaydigan kuy quyilib turardi. Biroq birinchi marta Alpomishni bizning jamiyat fuqarosi kabi his etar va yanayam aniqlik kiritgim kelardi. Qarang-a, bir vaqtning o'zida kim bilandir suhbat qurib, ham jononlarga nigoh tashlab, ham miyamda butun bir "diplom ishi" yozardim.

ULTANTOZga maza bo'ldi, u bizni ZINDONga tashlagan-u o'zi bilganicha "siyosat" yurita boshlagan. ULTANTOZ kim yoki nima? U hammamizning bir umr to'ymaydigan, berganing sari ishtahasi ochilib boradigan NAFSIMIZdir. Biz ZINDONimizni jihoz bilan to'ldirib bo'lgunimizcha, ijtimoiy ishtahamiz qonguncha, ULTANTOZlar onamizni cho'ri, otamizni qul, singlimizni cho'pon qiladi (balki qarilik vaji bilan bizdan tortib oladi). ZINDONdagilarning ko'pi bu haqda bosh qotirmaydi. Buni o'ylashga ham vaqtlari yo'q. Va bu ro'yxatning eng oxirida turadigan masala. Bajarilmasa ham hech narsa yo'qotilmaydi. Alpomishning bizdan ustunligi ham shunda, u Ultantoz qo'lida qolgan eli haqida qayg'urgan, xuddi JADIDlardek.

Oh-oh, mening ZINDONIM, mening TAVKAlarim. Bularning raqsini qarang, bularning kiyimlarini qarang, bularning qadahni bittada ko'tarishini qarang! Qaddingni ur, ULTANTOZ! Tashakkur senga, MASTON KAMPIR! Toshingni ter QORAJOON! Bu hayqiriqlar qo'shiq orasida aytildimi yoki o'z miyamning mahsulimi, bilmayman. Mast bo'ldim shekilli.

Bir kam ziyoli sifatida shuni aytishim mumkinki, men G'OZni kutyapman! Juda intiq kutyapman. G'OZ nima o'zi? G'OZ — insof va qanoat! Hanuz tirikligim to'g'risida xabarni olib ketishini. So'ng SHAKAMAN MERGAN, ya'ni dunyoga bo'lgan havasning to'shak tortib qolishini, BOYSUN-QO'NG'IROT — zohidlar eliga tirikligim ma'lum bo'lishini kutyapman. Ammo bizning ZINDONga yarador bo'lib yiqilgan barcha G'OZlar, qo'li shirin OSHPAZlarimiz (bu o'rinda shakkokliklarimiz) tomonidan dimlab, dasturxonga tortib yuborilmoqda. G'OZning go'shti shirin bo'ladi-da.

Lapashang KAYQUBOD! KAYQUBOD — mayda-chuyda rag'batlar. Bizga KAYQUBODlar lapashang ko'rinadi. Ammo KAYQUBOD ZINDONda emas. Har zamonda bitta QO'Yni tashlab qo'yib, ozodlikda yuradi. U ja ichidan pishgan. O'zini sodda ko'rsatib, TAVKAning orqasiga mingashadi-da, rohatlanib ketaveradi. Bizning KAYQUBODlar ozgina ikkiyuzlamachiroq. Bir ko'rishda sizga do'st, ammo ULTANTOZga ham g'ayirligi yo'q. Unga nima farqi bor, ALPOMISH ZINDONdan chiqsa, taxtli bo'ladi, ZINDONda qolsa baxtli bo'ladi. Hatto dostonda ham orsizligiga ozgina ishoralar borday, bo'lmasa birovning quchog'idan chiqqan xotinni boshiga uradimi?!

Oh-oh, TAVKAlarim, TAVKAlarim! Biz bilan davra qurib o'ynagisi bor. Nigohlari qo'lga aylanib, sochlaringdan silab, qulog'ingdan tortayotganga o'xshaydi-ya. Meni kechir, OYBARCHIN, YODGOR, ya'ni men bilan faxrlanishni istaydigan avlodimga o'zing yotig'i bilan tushuntir. Axir ZINDON — ZINDONda! Rossiya bo'lsa ekan, biletga pul topib ortga qaytadigan. Bu — o'z nomi bilan ZINDON axir. Bunda ham ancha kecholmaydigan narsalar paydo bo'ldi. Tag'in TAVKAmizning qorni duppayib qolgan. Yangi ZINDON, fuqarosiga beshik tayyorlab qo'yganmiz. Faqat nima ism qo'ysak ekan? Ismi nima bo'lgan taqdirda ham ZINDONIY bo'ladi. Chunki bizning necha ming yillik tariximiz, o'zligimiz, o'zbekligimiz bor. "Ov", "vov" degan qo'shimchalardan kechadigan payt keldi. Bizning ilmimiz, ibodatimiz va o'z qarashlarimiz bo'lmasa ham, buyuk ajdodlarimiz yozgan kitoblarning bittasini, hech bo'lmasa, yarmigacha o'qimasak-da, TURKIYligimiz bor. Biz bu "TURKIY" degan so'zni saqichdek har kuni ishxonada, ko'chada, xullas o'zimizni aqlliroq ko'rsatish kerak bo'lgan har qanday joyda chaynaymiz.

YODGORga ayt, har narsaga tixirlik qilavermasin. Doim ertaklar yaxshilik bilan tugashi shart emas. Mana, ellinlar afsonalariga qara, YASON oxir-oqibat nima bo'ldi?! Shuncha qahramonlik ko'rsatib, o'z yurtiga qaytib, xotinni ikkita qildi-yu xor bo'ldi. Vafodor hamrohi va unga shuhrat-shon keltirgan "Argo"sining soyasida jon berdi.

Yolg'iz umidim BOYCHIBOR, ya'ni KO'NGLIMdan. So'nggi umid shu! Faqat qaziga topshirib yubormagan bo'lsa bas!

Ba'zida bu ZINDONdan chiqish, qutilib ketish juda oson tuyuladi. Biroq ISTAK yo'q. ZINDONdan chiqishning ham o'ziga yarasha bosh og'riqlari bor. Yana qahramonlik ko'rsatish kerak, yana rejalar tuzish kerak. QALDIRG'OCHning ko'z-yoshi. QULTOYga aylanish, grim-prim qilish kerak. Ko'pkari chopish kerak. Kamon otish kerak. Xullas tinim yo'q-da.

Ichgan vaqtlarimda, sen bilan o'tgan yoshligim va qahramonliklarimni ko'p eslab turaman. Hatto, "hay davronlarima-a-a", deb qo'yaman. Ammo ertaroq uxlash kerak bo'ladi, bo'lmasa eratalab uyg'onish qiyin kechadi va ishga kechikib qolishim mumkin. Ishga kechiksam, ishdan ayrilaman. Maosh olmayman. Pul yo'qmi, menga "farog'at" ulashib, ZINDONimni "jannat"ga aylantirib turgan TAVKALARIMdan ayrilib qolaman.

ZINDONimda bitta shior bor: "PESHONAGA SHU ZINDON YOZILGAN EKAN, HECH BO'LMASA ZINDONDA YAXSHI YASHA. PIRAJKI BILAN ARZON AROQQA KUNING QOLMASIN!".

So'nggi istagim: BOYCHIBORning ustixonini muzeyga qo'yinglar!

***P/s.*** *Aziz o'quvchi, men Alpomish bo'lganiga ishonuvchi qatlamga kiraman. Shu bois, bugungi hayot tarzimizni taqqoslab ko'rishga urindim. Mendan ranjib yurmang TAVKAlar, biz siz uchun yashayapmiz. Sizsiz ZINDONimiz huvillab qolardi.*

**Bek ALI,**
**shoir**

# Eng ulug', eng aziz ayyomingiz muborak bo'lsin!



# O'ZBEKISTON RESPULIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGINING NAVOIY VILOYATI BOSHQARMASI JAMOASI




*Xalqimizni, shu jumladan, butun O'zbekiston yoshlarini 1-sentabr — Mustaqillik kuni bilan tabriklaydi.*

*Vatan ravnaqi, el-yurt manfaatlarini ta'minlash, kasb-hunar va ilm egallash yo'lidagi mashaqqatli mehnatlaringizda ulkan zafarlar yor bo'lishini tilab qoladi.*



YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана

MUASSIS:
O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR:
Hamza ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB: Yelena KALININA
NAVBATCHI MUHARRIR: Iqbol PARDAYEVA
MUSAHHIH: Shahribonu RAHMATOVA
DIZAYNER: Zafar RO'ZIYEV

Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

TAHRIRIYAT MANZILI:
100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.

Telefonlar:
(71) 233-22-16.
(71) 236-79-95.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.
Hajmi – 3 bosma taboq.
**Korxona manzili:** Buyuk Turon ko'chasi, 41.
**Indekslar: 203, 3203**
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-955
Adadi – 725
**Bosishga topshirish vaqti – 21.00**
**Topshirildi** – 20.00

1 2 3 4 5 6